



## RESPUBLIKAMIZDA SOYA O'SIMLIGIGA BO'LGAN TALAB

Aminjonova Charosxon Akmalovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8108467>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-June 2023 yil  
Ma'qullandi: 28-June 2023 yil  
Nashr qilindi: 30-June 2023 yil

### KEY WORDS

harorat, unumdorlik, kechpishar navlar, takroriy ekish, organik moddalar, mineral o'g'it, kultivatsiya, tuproq, sug'orilgan yer, kompleks, soya urug'i.

### ABSTRACT

*Ushbu maqola soya o'simligiga bo'lgan talablar va uni yetishtirish hamda respublikamizning qishloq xo'jaligida hududlar sharoitidan kelib chiqqan holda ekish, parvarishlash va uning yer unumdorligidagi ahamiyati ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, yerni ekishga tayyorlash uslublarini ko'rib chiqilib, soya o'simligini mahsuldarligini oshirish yo'llari to'g'risida fikr va mulohazalar yuritilgan.*

**Soya – dukkanakdoshlarga mansub bir yillik o'tsimon o'simliklar turkumi, dukkanak don va moyli ekin.** Vatani – Xitoy. Dastlab O'zbekistonda **1975-yildan** ekilgan. Mevasi dukkanak, sariq, qora rangda bo'ladi. Har bir dukkagida 2-6 ta don bor, tarkibida 24-45% oqsil, 13-37% yog', 20-32% uglevodlar, vitaminlar bor. Soya donidan oziq-ovqat sanoatida, jumladan dukkanak ovqatga ishlataladi, soya unidan kolbasa mahsulotlari, sut, tvorog, qandolat mahsulotlari tayyorlashda foydalilanadi, oziqa sifatida chorva mollariga beriladi. Soyanning donidan qandli **diabet** kasalliklari uchun parhez taomlar tayyorlanadi. Soyanning asosiy oqsili – glitsinin yaxshi hazmlanadi, suvda yaxshi eriydi, achib qatiqqa aylanadi. Hozirgi kunda **O'zbekistonda soyaning 24 navi** yetishtiriladi.

Soyani har xil tuproq-iqlim sharoitlarida yetishtirish mumkin. Soya ekini bu xususiyati bilan dunyoning turli mintaqalarida ko'plab maydonlarda ekilmoqda. Soya issiqsevar o'simlik hisoblanadi. Urug'lari 6-7 °C da una boshlaydi, maysalarining unib chiqishi uchun optimal harorat 12-14 °C deb belgilangan. Soyanning o'sib rivojlanishi va hosilning sifati hamda tarkibiga tashqi muhit omillarining ta'siri yuqori. Har bir ta'sir etuvchi omil turli oqibatlarga olib keladi. Past va yuqori havo harorati barglar va gul rivojlanishini pasaytiruvchi yoki rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omil hisoblanadi. 29°C dan yuqori kechki issiqlik hosilni 10 foiz miqdorda kamayishiga olib keladi. Haddan tashqari issiq, hududlarda havo namligining past bo'lishi ham donlarning yaxshi to'lishmasligiga va hosilni pasayishiga sabab bo'ladi. Shu sababli quruq iqlimli hududlarda soya yetishtirilganda sug'orish miqdorlarini to'g'ri belgilash shart.

Respublikamiz sharoitida yozda havo quruq va issiq kelgani uchun tuproq tarkibida organik moddalar tez parchalanib ketadi. Natijada tuproqning fizik xususiyatlari tez yomonlashadi, uning unumdorligi pasayadi. Shuning uchun almashlab ekishda, tuproq

sturukturasini yaxshilaydigan o'simliklarni to'g'ri tanlash kerak. Respublikamizda soyaga o'tmishdosh ekin asosan, g'o'za, sholi, bug'doy va makkajo'xori bo'lishi mumkin.

Soya o'z navbatida juda ko'p o'simliklar uchun yaxshi o'tmishdosh hisoblanadi. Jumladan, soyadan keyin ekilgan g'alla, g'o'za va kartoshka ekinlari ekilganda ularning hosildorligi yuqori bo'lgan. Masalan, soyadan keyin ekilgan suli hosildorligiga ko'ra 4,5 sentnerga yuqori bo'lgan. Soyadan keyin chigit ekilganda esa paxta hosildorligi gektariga 2,7-3,3 sentnergacha oshgan.

**Yerni ekishga tayyorlash.** Bu bir qator kompleks agrotexnika tadbirlaridan iborat bo'lib, u kuz yoki qishda yer tekislash, mahalliy va mineral o'g'itlar solish, kuzgi shudgorlash lozim bo'lgan joylarda yaxob suvi berish, sho'r yuvish, yerlarni kuzgi yoki bahorgi ekish oldidan tekislash, boronalash va boshqa ishlarni o'z ichiga oladi. Yerni ekishga tayyorlash borasida kompleks tabdirlar har qaysi xo'jalik uchun ishlab chiqilgan alohida reja bo'yicha navbati bilan amalga oshiriladi. Chunki o'simlik uchun zarur bo'lgan asosiy sharoit turli tumanlarning tuproq iqlim sharoitida turlicha bo'ladi.

Tuproqni ishslash sistemasi to'g'ri tashkillashtirilsa, haydalma qatlamida nam to'plash va uni saqlab qolish, begona o'tlarning urug'lari va ildizlarini, turli xil kasalliklarni chaqiruvchi zamburug', virus va bakteriyalarga hamda tuproqda qishlovchi hashoratlarni yo'qotishga erishiladi. Kuzda haydash oldidan gektariga 8- 10 tonna go'ng, fosforli o'g'itlar yillik normasini 67-70% beriladi.

**Tuproqqa bo'lgan talabi.** Soya tuproq unumdorligiga talabchan o'simlik hisoblanadi. Odatda o'rta (neytral) pH 6,0-6,5 tuproq kislotaligi soya uchun me'yor hisoblanadi. Neytral muhitga ega bo'lgan, unumdar, chirindiga boy, yaxshi o'tkazuvchanlik xususiyatidagi tuproqlarda soyadan yuqori hosil olish mumkin. Sho'rangan tuproqlarda soya yetishtirilganda hosil keskin pasayadi. U qurg'oqchilikka arpa va bug'doya qaraganda chidamsiz ammo jo'xoriga nisbatan chidamlidir. Soya ildizidagi azotobakteriyalar kislotali tuproqlarda yaxshi rivojlnana olmaydi, shuning uchun tarkibida u mavjud bo'lgan o'g'itlardan foydalanmaslik maqsadga muvofiq. Odatda, jo'xori uchun maqbul iqlim va tuproq sharoitlari soya yetishtirishda qulay hisoblanadi.

**Soyani parvarishlash.** Birinchi kultivatsiya ishlari maysalar qiyg'os unib chiqqandan so'ng amalga oshiriladi. Keyingi kultivatsiya ekinzorni begona o'tlar bilan zararlanishi, tuproqning holati, sug'orishdan keyin tuproqning yetilganligiga qarab o'tkaziladi. Qator oralariga ishlov berish dalaning holatiga qarab, har 10-15 kunda amalga oshiriladi. Birinchi kultivatsiya 6-8 sm, keyingilari 10-15 sm chuqurlikda bo'lishi lozim. O'simlikning yaxshi o'sib rivojlanishida uning qator oralariga ishlov berish katta ahamiyatga ega. Bunda tuproqning suv-fizik, agrokimyoviy va mikrobiologik xususiyatlari, shuningdek, ozuqa rejimi yaxshilanadi, begona o'tlarning bir qismi yo'qotiladi. Shuning uchun kultivatsiya chuqurligi va uning soniga ham alohida e'tibor beriladi.

Respublikamizda donli va dukkakli ekinlarni rivojlantirish va tuproq unumdorligini oshirish hamda ekinlardan yuqori hosil olish borasida bir qator qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Keyingi yillarda respublikamizdagи sug'oriladigan maydonlarda ikkita ekin asosiy hukmron bo'lib qolmoqda, bug'doy va paxta uzlusiz bir maydonga ekilaverGANidan ular tuproqdan hosil bilan doimo bir xil mikro va makro elementlarni olib chiqib ketadi. Keyingi paytlarda tuproqqa beriladigan go'ng miqdori juda kamaydi, chunki fermer xo'jaliklaridan go'ng to'plash ham qiyinlashib bormoqda. Buxoro viloyati respublikada tuproq-iqlim sharoiti

o'simlik o'stirishga og'ir bo'lgan xududlardan biri bo'lib hisoblanadi, bu yerda tuproqlar sho'ranganligi bilan dehqonchilik qilish og'ir sanaladi. Shuning uchun bu xududda tuproqqa unumdoorlikni tiklovchi har agrotexnik tadbir bajarilishi lozim bo'lgan muhim ishlar turiga kiradi. Dukkakli ekinlardan soya ekish oraqli tuproqqa tabiiy azotli moddalar berish imkonи bo'ladi. Soya ekib tuproq unumdoorligiga ijobiy tasir qilish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning birdan-bir yo'li shu hisoblanadi. Soya dunyo mamlakatlarda 100 mln.ga yaqin maydonga ekilib kelinadi. Ko'pgina mamlakatlarda soya ekini asosiy, takroriy va qo'shib ekiladi, Soya eng ko'p ekadigan ayrim mamlakatlarda kechpishar navlar va takroriy ekish uchun havo harorati yetishmaydi. Soya asosiy ekishga rejalahtirilar ekan, albatta navlarni to'g'ri tanlash lozim. Ertapishar navlar uchun 1200- 1500 °C, o'rtapishar 1800-2100 °C va kechpishar navlar uchun 220-2400 °C harorat talab qiladi. Soya bugungi kun dehqonchiligidagi eng muhim ekin bo'lib, tuproqning biologik unumdoorligini oshiradi yoki o'zidan keyin tuproqqa 55-60 kg. miqdorda sof azot qoldirib ketadi. Faqatgina Buxoro viloyatida asosiy ekin sifatida ekish soyaning juda ko'p sonli navlaridan eng ma'qulini, o'suv davri qisqa, tez pishib yetiladigan, dukkaklari chatnab ketmaydigan hamda yuqori hosil beradiganini tanlab olish va fermerlarga tavsiya berish bizning ishimizning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.

**Xulosa qilib aytganda,** Buxoro viloyatining och tusli bo'z tuproqli yerlarida soyaning erta va o'rta pishar navlari uchun eng qulay ekish me'yori gektariga 500-550 ming unuvchan urug', o'rta va kech pishar navlari uchun esa, 450- 500 ming unuvchan urug' hisoblanadi.

Urug'larning mayda yirikligini, ya'ni ming dona urug' vaznini hisobga olib ekish me'yorini kilogramm hisobida aniqlaydigan bo'lsak, bunda gektariga 60-70 kg ni tashkil etadi. Bir so'z bilan aytganda ekish me'yori shunday bo'lsinki, soyani yig'ishtirib olish vaqtida gektarida erta pishar navlarda 450-500 ming dona va kech pishan navlarda 400 ming dona o'simlik bo'lishi lozim.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.O.Beknazarov "O'simliklar fiziologiyasi" T, 2009
2. Ergashovich, K. A., & Akmalovna, A. C. (2022). Soybean Cultivation Technology and Basics of Land Preparation for Planting. Eurasian Journal of Research, Development and Innovation, 7, 8-13.
3. Akmalovna, A. C. (2022). SOYA-OQSIL TANQISLIGINI HAL ETISHDA ENG MUHIMMANBALARDAN BIRI. БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 410-415.
4. Akmalovna, A. C. (2022, March). BIOLOGICAL PROPERTIES OF SOYBEAN. In E Conference Zone (pp. 90-94).
5. Akmalovna, A. C. (2022). Characteristics and Advantages of Soybean Benefits in Every way. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(8), 67-69.
6. AMINJONOVA, C. TECHNOLOGIES OF EDUCATIONAL INNOVATION AND USE OF METHODS IN THE DEVELOPMENT OF BIOLOGICAL SCIENCE. ИНТЕРНАУКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Интернаука", 27-30.
7. Akmalovna, A. C. (2022). Innovative Methods used in Biological Science Teaching. Scholastic: Journal of Natural and Medical Education, 1(2), 5-11.
8. Akmalovna, A. C., & Ismatovna, B. B. (2022). YURAK XASTALIKLARIDA QO'LLANILADIGAN DORIVOR O'SIMLIKALAR. Uzbek Scholar Journal, 10, 309-314.
9. Akmalovna, A. C. (2022). TALABALARDA TABIIY-ILMIY DUNYOQARASHINI

- RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 109-117.
10. Akmalovna, A. C. (2022). SOG'LOM AVLOD QOLDIRISH-BUYUK KELAJAK POYDEVORI. Uzbek Scholar Journal, 5, 177-181.
11. Aminjonova, C. A. (2022). Sog'lom ona va bola-baxtli kelajak asosi. Scientific progress, 3(1), 874-880.
12. Аминжонова, Ч. А., & Мустафаева, М. И. (2017). БИОЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОДОРОСЛЕЙ БИОЛОГИЧЕСКИХ ПРУДОВ г. БУХАРЫ. In Экологические проблемы промышленных городов (pp. 387-389).
13. Aminjonova, C. A. (2021). METHODOLOGY AND PROBLEMS OF TEACHING THE SUBJECT "BIOLOGY" IN MEDICAL UNIVERSITIES. Смоленский медицинский альманах, (1), 15-18.
14. AMINJONOVA, C. (2021). Problems and methods of teaching the subject "Biology". Центр научных публикаций (buxdu.uz), 1(1).
15. Akmalovna, A. C., & Olimovna, A. G. (2020). METHODOLOGY AND PROBLEMS OF TEACHING THE SUBJECT " BIOLOGY" IN MEDICAL UNIVERSITIES AND SECONDARY EDUCATIONAL SCHOOLS. Eurasian Medical Journal, (2), 6-8.
16. Aminjonova, C. A. (2022). TALABALAR O'QUV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM INNOVATSIYALARIDAN VA METODLARIDAN FOYDALANISH. Scientific progress, 3(3), 447-453.
17. Аминжонова, Ч. А., & Мавлянова, Д. А. (2020). МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА "БИОЛОГИЯ" В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. In МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ПСИХОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ (pp. 8-11).
18. Akmalovna, A. C. (2023). Ayollarda Vitamin Yetishmasligi Natijasida Kelib Chiqadigan Kasalliklar. AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, 2(2), 35-40.
19. Aminjonova, C. A., & Jaloldinova, M. M. Q. (2023). VITAMINLARNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1), 288-296.
20. Akmalovna, A. C. (2023). VITAMINLAR TANQISLIGI TUFAYLI INSONLARDA PAYDO BO'LADIGAN KASALLIKLAR. IQRO JURNALI, 2(2), 696-701.
21. Akmalovna, A. C. VITAMINLARNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI.
22. Aminjonovich, A. A. (2022). TREATMENT AND DIAGNOSTIC METHODS OF PNEUMONIA IN CHILDREN OF UZBEKISTAN. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 560-566.
23. Асроров, А. А. (2022). МАМЛАКАТИМИЗ ФАРМАЦЕВТИКА СОҲАСИ УЧУН ЯНА БИР РИВОЖЛАНИШ ДАВРИ БОШЛАНДИ. Scientific progress, 3(3), 725-730.
24. Aminjonovich, A. A. (2023). DIVISION OF STUDENTS INTO MEDICAL GROUPS ACCORDING TO THEIR HEALTH STATUS AND CHARACTERISTICS. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 113-118.
25. Асроров, А. А., & Аминжонова, Ч. А. (2021). ОИЛАВИЙ ШИФОКОР АМАЛИЁТИДА ИНСУЛЬТ ЎТКАЗГАН БЕМОРЛАРДА КОГНИТИВ БУЗИЛИШЛАР ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ. ЖУРНАЛ НЕВРОЛОГИИ И НЕЙРОХИРУРГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ, (SPECIAL 1).
26. Асроров, А. А., & Аминжонова, Ч. А. (2021). Оценка Состояния Когнитивных Нарушений У Пациентов Перенесших Инсульт В Практике Семейного Врача. CENTRAL

ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 397-401.

27. Aminjonovich, A. A., & Akmalovna, A. C. (2021, March). METHODS OF TEACHING THE SUBJECT "BIOLOGY" IN MEDICAL UNIVERSITIES. In Euro-Asia Conferences (Vol. 3, No. 1, pp. 38-40).

